



UDK: 930/304.4

Dilrabo QURBANOVA,

Urganch Innovation universiteti dotsenti

Xorazm viloyati pedagoglarni malakasini oshirish milliy markazi dotsenti, PhD A.H. Vaisov taqrizi asosida

HISTORY OF FEMALE DEPUTIES ELECTED TO THE PARLIAMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.

Annotation

This article analyzes the percentage of women in the parliamentary elections after the independence of the Republic of Uzbekistan, by years. The role of laws and regulations adopted on gender equality in the life of the society is justified.

Key words: Law, women, deputy, election, gender equality, parliament, people, society, state, party.

ИСТОРИЯ ЖЕНЩИН ДЕПУТАТОВ, ИЗБРАННЫХ В ПАРЛАМЕНТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация

В данной статье проанализирована доля женщин на парламентских выборах, состоявшихся после обретения независимости Республики Узбекистан, по годам. Обоснована роль принятых законов и нормативных актов по вопросам гендерного равенства в жизни общества.

Ключевые слова: Закон, женщины, депутат, выборы, гендерное равенство, парламент, народ, общество, государство, партия.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PARLAMENTIGA SAYLANGAN AYOL DEPUTATLAR TARIXI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingi parlamentga o'tkazilgan saylovlarda ayollar ulushi, yillar kesimida tahlil qilingan. Gender tenglik bo'yicha qabul qilingan Qonunlar va qonunosti hujjatlarining jamiyat hayotidagi roli asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Qonun, xotin-qizlar, deputat, saylov, gender tenglik, parlament, xalq, jamiyat, davlat, partiya.

Kirish. Xotin-qizlarning o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishlari uchun ijtimoiy-ma'naviy muhit yaratilmoqda. Tashkilotchilik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik qobiliyatiga ega bo'lgan xotin-qizlar boshqaruv tizimida hech qanday to'siqlarsiz o'z qonuniy o'rnini egallashga erishishni ta'minlash muhim ahamiyatga molikdir. Xotin-qizlarning parlamentdagi o'rnining oshib borishiga erishish ularning siyosiy hayotidagi mavqei ko'tarilishi uchun zamindir. Bu borada, sosializm davrida bo'lganidek, sun'iy ravishda oldinda belgilab berilgan ko'rsatkichlarga moslashish emas, balki yetakchilik iste'dodi bo'lgan har bir ayolning erkin faoliyat ko'rsatishiga sharoit yaratib berish ko'zda tutiladi.

Shu jihatdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiing 1995 yil 2 martda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasi davlat va jamiyat qurilishida ayollar rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" farmoni qabul qilindi. Farmonda hokimiyatning barcha darajadagi ijroiya organlarida ayollar ishtirokini ta'minlash nazarda tutiladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining, viloyatlar, shaharlar hokimlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari lavozimlari joriy etilib, ushbu lavozimga tegishli xotin-qizlar qo'mitalarining raislari tayinlandi, ularga ayollar huquqiy madaniyatini takomillashtirish, oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofazasi uchun mas'uliyat yuklandi.

Ushbu imkoniyatlarning samarasi o'laroq O'zbekiston Respublikasida 1994-1999 yillarda ilk bor xotin-qizlar ham ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilgan saylovda ishtirok etib, barcha darajadagi vakillik organlari deputatligiga saylandilar.

1995 yildagi O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi saylovlari mamlakat tarixida muhim bosqichlardan biri bo'lib, ularning natijalariga ko'ra, O'zbekistonda parlament tizimi rivojlanishda yangi yo'nalishlarni belgilab berdi. Bu saylovlar mamlakatning mustaqillik davridagi birinchi parlament saylovi bo'lib, parlamentning shakli va funksiyalarida sezilarli o'zgarishlar paydo bo'ldi.

1995 yilda O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi saylovi 26 dekabrda o'tkazilgan. Saylovlardan maqsad mamlakatda demokratik institutlarni mustahkamlash, parlamentning faolligini oshirish va aholining siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish bo'lgan. Ushbu saylovda deputatlar soni 250 ta bo'lib, ular xalq deputatlari palatasini tashkil etdi. Senat palatasi esa 50 deputatdan iborat bo'ldi. Saylovlarda, avvalo, hukumat va prezident tarafidan qo'llab-quvvatlangan nomzodlar asosan parlamentida xokimiyatning islohotlarini amalga oshirishga qaratilgan qonunlar ishlab chiqishga olib keldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Oliy Majlisida ayollar parlamentiga birinchi marotaba faol ishtirok etishga yo'l olishdi. 1995 yilda 14 ta ayol deputat saylandi. Bu o'z navbatida, ayollarning siyosiy hayotdagi ishtiroki va ularning parlamentdagi roliga ahamiyat berishni ko'rsatdi. Ushbu davrda ayollar huquqlarini himoya qilish, gender tengligini ta'minlash va ayollar uchun ijtimoiy shart-sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan qonunlar ishlab chiqildi.

1999 yil 10 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlisni komissiya raisi N. Komilov boshqardi. Majlisda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saalov to'g'risida»gi Qonunning 11 va 46-moddalariga muvofiq, 1999 yil 5 dekabr kuni o'tkazilgan Oliy Majlis deputatlari saylovining respublika bo'yicha yakunlari ko'rib chiqildi.

250 ta okrugning barchasida saylovchilar ovoz berishda ishtirok etganligi ta'kidlanib, ularda o'tkazilgan saylovlar haqiqiy deb topiddi. Ovoz berish natijalarga ko'ra 184 ta saylov okrugida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari saylangan. Ular orasida «Adalat» sosial - demokratik partiyasining 9 nafar, «Vatan taraqqiyoti» partiyasining 9, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining 6, Fidokorlar milliy demokratik partiyasining 19, Xalq demokratik partiyasining 32, hokimiyat vakillik organlarining 98 va saylovchilar tashabbuskor guruhlarining 11 nafar vakili

saylandi. Saylanganlardan 10 nafari xotin-qizlardan iborat bo'lgan [1]. G.Yo'ldosheva, G.Boqiyeve, Y.Mamadaliyeva, M.Razzoqova, S.Rashidova, M.Safayeva, B.Shodiyeva, D.G'ulomova (Toshkent shahri), Sh.Xo'janiyozova (Xorazm viloyati), R.Xakimova (Samarqand viloyati) [2].

Takroriy ovoz bsrish natijalariga ko'ra, 65 saylov okrugida deputatlar saylanli. Shu jumladan, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan — 16, Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan — 15, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan — 11, «Adolat» sosial-demokratik partiyasidan — 2, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan — 4, hokimiyat vakillik organlaridan — 12, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan — 5 deputat saylandi [3]. Ulardan saylanganlardan 5 nafari xotin-qizlardir: P.Badalbayerova (Qashqadaryo viloyati), D.Djaxangirova (Toshkent shahri), G.Ibodullayeva (Xorazm viloyati), O.Musulmonova (Samarqand viloyati), Sh.Umarova (Jizzah viloyati) [4].

Shunday qilib, 2000 yilga kelib, ayollar soni 22 taga yetgan, bu 2004 yilga qadar safarbarlikda ayol deputatlarini parlamentda faol ishlashga ixtisoslashtirishga asos bo'lgan. O'zbekistonda ayollarning parlamentdagi ishtiroki boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda nisbatan past bo'lsa-da, mamlakatda bu jarayonni rivojlantirishga qaratilgan qadamlar sezilarli bo'ldi. Jahon tajribasidan foydalanish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik ayol deputatlarining samaradorligini oshirishga yordam berdi.

Oliy Majlisning uch o'rinbosaridan 1 nafari, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Ijtimoiy masalalar va bandlik qo'mitasi, Oila va ayollar muammolari komissiyasi raislari ayol jinsiga mansub ekanligi xotin-qizlarning davlat va parlament darajasidagi masalalarni hal etishga jalb qilish yuzasidan salmoqli ish olib borilganidan dalolat beradi.

2004 yildagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi saylovlarini mamlakatning siyosiy hayotida muhim bosqich bo'ldi. Bu saylovlar, O'zbekistondagi parlament tizimining rivojlanishi va siyosiy islohotlarning natijasini ko'rsatgan davr bo'lib, ayol deputatlarining faoliyatini kengaytirish, demokratik prinsiplar va huquqiy tajribalarni amalga oshirishga katta ta'sir ko'rsatdi.

2004 yildagi saylovlar 26 dekabrda o'tkazildi. Bu saylovlar bo'yicha O'zbekiston Oliy Majlisining Qonunchilik palatasini shakllantirish uchun 120 deputat saylandi va Senat uchun nomzodlar ko'rsatish imkoniyati berildi. Saylovlarda ayollar uchun keng imkoniyatlar yaratildi, ayollarning parlamentga kirish imkoniyatlari sezilarli oshdi. 2004 yildagi Oliy Majlis saylovlari natijasida ayollar parlamentida faol ishtirok etishgan va ayol deputatlar soni 22 taga yetgan. Bu O'zbekistonda ayollarning siyosiy hayotga qatnashug'ini kengaytirishga va gender tengligini ta'minlashga qaratilgan amaliy harakatlarning natijasi bo'ldi.

Shu bilan birga ayrim muammolarni ham qayd etib o'tish zarur. Xususan, 2009 yilgi parlamentning quyi palatasiga o'tkazilgan saylovda barcha nomzodlarning 31 %ini ayollar tashkil etgan bo'lsa, saylov yakunlariga ko'ra bu ko'rsatkich Qonunchilik palatasida 22 % (33 nafar)ni, Senatda esa 15%ni ta'minladi. Mahalliy vakillik organlarida faoliyat ko'rsatayotgan ayollar esa jami deputatlar sonining 20 %idan ortig'ini tashkil etgan.

2019 yilda deputatlar orasida ayollar soni kamaygani ta'kidlab o'tish joizdir. Agar 10 yil avval ular Senat a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlarining 20 foizdan ortig'ini tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilga kelib bu ko'rsatkich yuqori palatada 17 foizga, quyi palatada esa 16 foizga kamaydi [5].

2020 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tkanday: "Hozirda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar samarasida

xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligi tobora ortib bormoqda. Buni 2019 yilning dekabr oyida bo'lib o'tgan mamlakatimiz parlamenti va mahalliy Kengashlariga bo'lib o'tgan saylovlar yana bir bor yaqqol ko'rsatdi" [6].

2024 yili O'zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga yangi saylangan deputatlarining Deputatlar orasida ayollar soni 11 nafarga ko'payib, 48 dan 57 nafarga yetdi, ularning ulushi 32 foizdan 38 foizga o'sdi. Deputat ayollarning o'rtacha yoshi 2,7 yoshga — 52,1 yoshgacha ko'tarilgan [7]. Har bir partiyadagi ayollar soni esa O'zLiDeP da 24 nafar ayol, «Milliy tiklanish»da 8 nafar ayol, O'zXDP da 8 nafar ayol, Ekologik partiyasida 6 nafar ayol, «Adolat» partiyasida esa 11 nafar ayollarni tashkil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Umuman olganda olib borilgan amaliy ishlar natijasida 2024 yil bo'lib o'tgan saylov yakunlari bo'yicha parlamentning quyi palatasiga 48 nafar ayol deputat etib saylandi. Deputatlar umumiy sonining 32 foizini, Senatda esa 25 foizni xotin-qizlar tashkil etmoqda. O'zbekiston tarixida ilk marotaba milliy parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi. O'zbekiston parlamenti xotin-qizlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi [8].

Tahlil va natijalar. Hududiy, tuman va shahar saylov komissiyalari tomonidan ham mahalliy Kengashlar saylovlarining yakunlari chiqarildi. Ta'kidlanganidek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar va tuman (shahar)lar Kengashlariga saylov natijalariga ko'ra, mahalliy Kengashlar tarkibi 59,2 foizga yangilandi. Yangi saylangan deputatlarining 32,6 foizi xotin-qizlarni tashkil qildi [9].

Deputatlarining 4 foizi — 30 yoshgacha, 39,5 foizi — 30 yoshdan 45 yoshgacha, 40,8 foizi — 45 yoshdan 60 yoshgacha, 15,7 foizi — 60 yoshdan kattalarni tashkil etadi.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisda ayol deputatlar faoliyatining xulosasi, ularning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi roli bo'yicha quyidagi asosiy jihatlarini qamrab oladi.

Birinchidan, ayol deputatlar mamlakatdagi gender tengligini ta'minlashga qaratilgan qonunlarni ishlab chiqishga katta hissa qo'shdi. Ushbu faoliyat 1990-yillardan boshlab bosqichma-bosqich rivojlanib, ayollarning davlat organlaridagi ishtiroki va vakolatlarining kengayishiga olib keldi. Ayollar siyosiy jarayonlarga faol kirishib, ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashga yo'naltirilgan bir qator qonunlarni qabul qilishga va amalga oshirishga ulkan hissa qo'shdi.

Ikkinchidan, ayollar Oliy Majlisda siyosiy faollikni oshirishga muvaffaq bo'ldi. 1995 yildan 2004 yilgacha bo'lgan davrda ayol deputatlar soni oshdi va ularning faolligi xalq va parlament oldida muhim ahamiyat kasb etdi. Ayollar faoliyati, asosan, ma'naviy va ijtimoiy sohalarida, shu jumladan, oilaviy va ayollarning huquqlarini himoya qilishda faol ko'rsatildi.

Uchinchidan, ayol deputatlar ijtimoiy masalalarga, xususan, oilaviy zo'rlik, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida ko'plab tashabbuslarni ilgari surdi. Ular ayollarning huquqlarini muhofaza qilish va gender tengligini ta'minlash uchun qonunchilikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratishdi.

To'rtinchidan, ayol deputatlar iqtisodiy va huquqiy sohalarida ham faol ish olib borishdi. Ular iqtisodiy rivojlanish, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida qonunlar ishlab chiqish va ijtimoiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan faoliyatlarini amalga oshirdilar. Bu bilan ayollar mamlakatdagi iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga hissa qo'shdi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi. // Xalq so'zi, 1999 yil 11 dekabr. — 1 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi. // Xalq so'zi, 1999 yil 11 dekabr. – 2-3 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi. // Xalq so'zi, 1999 yil 24 dekabr. – 1 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi. // Xalq so'zi, 1999 yil 24 dekabr. – 2 b.
5. O'sha manba.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. / https://uza.uz/uz/posts/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda_293336?q=%2Fposts%2Fyangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda_293336
7. Qonunchilik palatasining yangi chaqiriq deputatlarining o'rtacha yoshi oshdi(2024 yil, 2 noyabr) // <https://www.gazeta.uz/uz/2024/11/02/deputies-age/>
8. O'zbekiston taraqqiyotida parlamentdagi ayollarning o'rni // https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-taraqqiyotida-parlamentdagi-ayollarning-orni_194577
9. Yangi saylangan deputatlar ro'yxatga olindi. // <https://uza.uz/uz/posts/>